


TOSHKENT VILOYATIINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019-yil yanvar-noyabr)


2019-yil yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 4276,9 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 126,1 % ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 1633,2 mln. AQSH dollarga (o'sish sur'ati 131,5 %) va import hajmi 2643,7 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 123,0 %) yetdi. Tashqi savdo saldosini minus 1010,5 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSH dollari)



So‘ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo‘shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo‘naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

Toshkent viloyati tashqi savdo aylanmasining o‘sish sur‘atlari (o‘tgan yilga nisbatan, %)



Shu bilan birga ta’kidlab o‘tish kerakki, 2019-yilning noyabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar oktabr oyiga nisbatan 2,4 mln. AQSH dollariga kamroq eksport qilindi va 134,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Tovarlarning importi hajmi esa 220,2 mln. AQSH dollarini tashkil qilgan bo‘lib, bu esa oktabr oyiga nisbatan 107,2 mln. AQSH dollariga kamroqdir. Bu asosan mashina va asbob-uskunalar, qora va rangli metallar shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa tovarlarga to‘g‘ri keldi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlarning ketma-ketligi joriy yilning yanvar oyidan buyon deyarli o‘zgarishsiz bo‘lib, faqatgina ularning o‘rni almashib kelmoqda.

**Viloyat tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega davlatlar**


(mln. AQSH dollari)

| Davlat nomi | Tashqi savdo aylanmasi | Eksport | Import | Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, % |
|-------------------------|-------------------------------|----------------|---------------|---|
| Qozog‘iston | 830,8 | 213,8 | 617,0 | 19,4 |
| Rossiya Federatsiyasi | 726,9 | 204,4 | 522,5 | 17,0 |
| Turkiya | 725,0 | 200,2 | 524,8 | 17,0 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 719,6 | 608,3 | 111,3 | 16,8 |
| Janubiy Koreya | 171,2 | 8,4 | 162,7 | 4,0 |
| Germaniya | 105,7 | 2,1 | 103,6 | 2,5 |
| Tojikiston | 85,5 | 84,3 | 1,2 | 2,0 |
| B.A.A. | 82,6 | 27,3 | 55,3 | 1,9 |
| Afg‘oniston | 66,6 | 66,2 | 0,4 | 1,6 |
| Qirg‘iziston | 54,1 | 39,1 | 15,0 | 1,3 |
| Belarussiya | 53,7 | 34,5 | 19,2 | 1,3 |
| Ukraina | 52,4 | 13,1 | 39,3 | 1,2 |
| Litva | 47,1 | 0,0 | 47,1 | 1,1 |
| Italiya | 46,2 | 0,3 | 45,9 | 1,1 |
| Meksika | 45,1 | 3,6 | 41,5 | 1,1 |
| Singapur | 41,6 | 0,0 | 41,6 | 1,0 |
| Braziliya | 38,7 | 11,7 | 27,1 | 0,9 |
| Shvetsariya | 36,1 | 29,1 | 7,0 | 0,8 |
| Buyuk Britaniya | 32,7 | 10,9 | 21,9 | 0,8 |
| Eron | 32,4 | 20,9 | 11,5 | 0,8 |

Viloyatda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019-yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 42,7 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 38,8 % ga oshdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018-yilning yanvar-noyabr oylarida 61,2 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2019-yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 57,3 % ga yoki 0,8 % punktga ko‘paydi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko‘rsatkichlari dinamikasi (mln. AQSH dollari)




EKSPORT




2019-yil yanvar-noyabr oylarida eksport hajmi 1633,2 mln. AQSH dollarga (31,5 % ga oshgan) teng bo‘ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,2 % ulushga ega, bular asosan qora va rangli metallar (60,6 %), boshqa turdagi tovarlar (17,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari (9,9 %), paxta tolasi (6,7 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (1,9%) shuningdek, mashina va uskunalar (2,6 %) guruhlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (mln.AQSH dollari)

2018-yil
yanvar-noyabr



2019-yil
yanvar-noyabr




Eksport tarkibi

| | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|-----------------|--------------------------|---------------------------|-----------------|--------------------------|---------------------------|------------------|--------------------------|---------------------------|
| | mln. AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % |
| Eksport | 1633,2 | 131,5 | 100,0 | 543,6 | 165,4 | 100,0 | 1089,6 | 119,3 | 100,0 |
| Paxta tolasi | 109,9 | 185,9 | 6,7 | 0,2 | 15,6 | 0,0 | 109,7 | 189,7 | 10,1 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 161,4 | 164,5 | 9,9 | 123,8 | 2,1m | 22,8 | 37,6 | 96,2 | 3,5 |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari | 30,3 | 85,8 | 1,9 | 22,3 | 132,7 | 4,1 | 8,0 | 43,3 | 0,7 |
| Energiya manbaalari va neft mahsulotlari | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,00 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Qora va rangli metallar | 990,5 | 118,4 | 60,6 | 190,0 | 161,2 | 35,0 | 800,5 | 111,4 | 73,5 |
| Mashina va asbob -uskunalar | 41,8 | 2,1m | 2,6 | 18,6 | 3,5m | 3,4 | 23,2 | 160,2 | 2,1 |
| Xizmatlar | 12,9 | 114,9 | 0,8 | 2,7 | 155,7 | 0,5 | 10,3 | 107,6 | 0,9 |
| Boshqalar | 286,3 | 157,6 | 17,5 | 186,0 | 147,0 | 34,2 | 100,3 | 181,8 | 9,2 |

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-noyabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari yanvar oyida kuzatilgan. Bu asosan qora va rangli metallar va boshqa turdagi tovarlarga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar eksportining o‘shish sur‘atlari dinamikasi (o‘tgan yilga nisbatan, %)



Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o‘shish sur‘atlarining tahliliga asosan, 2019-yilning noyabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar oktabr oyiga nisbatan 1,8 % ga kamaygan.


Xizmatlar eksporti hajmi 12,9 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,8 % ini tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 14,9 % ga oshgani kuzatildi.

Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to‘g‘ri keladi.


Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2019-yilning noyabr oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi oktabr oyiga nisbatan 2,4 mln. AQSH dollariga kam eksport qilindi va 134,2 mln. AQSH dollarini, shuningdek, xizmatlar eksporti esa 1,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi

(oylar kesimida, mln. AQSH dollari)



Viloyat eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi (2019-yil yanvar-noyabr, %)



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Turkiya va Qozog'iston davlatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 50,3 % ini tashkil qiladi. Turkiya va Qozog'iston davlatlariga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida jami 149,6 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 120,2 mln. AQSH dollariga eksport qilindi (o‘shish sur‘ati – 2,1 martaga ko‘p). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida 75,5 ming tonnadan ko‘proq sabzavotlar 46,2 mln. AQSH dollariga yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 35,5 ming tonnaga ko‘p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 41,6 ming tonna meva va rezavorlar 43,2 mln. AQSH dollariga eksport qilingan bo‘lib, eksport hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 15,3 ming tonnaga ko‘proqdir (o‘shish sur‘ati – 153,2 %).




Shuni aytib o‘tish joizki, viloyatning eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o‘zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalar eksport qilinmoqda. Jumladan, 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 89,4 mln. AQSH dollariga yetdi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 93,9 % ga ko‘p).

IMPORT




Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi 2643,7 mln. AQSH dollariga (o‘shish sur‘ati 123,0 %) teng bo‘ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (34,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari (15,3 %), qora va rangli metallar (15,3 %) hamda boshqa tovarlar (24,7 %) guruhlari hisobiga to‘g‘ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi (mln.AQSH dollari)

2018-yil
yanvar-noyabr



2019-yil
yanvar-noyabr




Import tarkibi

| | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|-----------------|--------------------------|---------------------------|-----------------------|--------------------------|---------------------------|-------------------------|--------------------------|---------------------------|
| | mln. AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % |
| Import | 2643,7 | 123,0 | 100,0 | 1281,3 | 129,9 | 100,0 | 1362,4 | 117,1 | 100,0 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 405,6 | 2,5m | 15,3 | 241,9 | 2,5m | 18,9 | 163,7 | 2,5m | 12,0 |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari | 208,3 | 143,8 | 7,9 | 56,7 | 180,5 | 4,4 | 151,6 | 133,7 | 11,1 |
| Energiya manbaalari va neft mahsulotlari | 27,7 | 80,6 | 1,0 | 26,1 | 79,4 | 2,0 | 1,6 | 108,5 | 0,1 |
| Qora va rangli metallar | 403,2 | 82,7 | 15,3 | 294,8 | 86,5 | 23,0 | 108,5 | 74,0 | 8,0 |
| Mashina va asbob-uskunalar | 909,0 | 105,5 | 34,4 | 127,9 | 50,1 | 10,0 | 781,2 | 128,9 | 57,3 |
| Xizmatlar | 36,8 | 26,2 | 1,4 | 11,7 | 2,1m | 0,9 | 25,1 | 18,6 | 1,8 |
| Boshqalar | 653,1 | 2,1m | 24,7 | 522,2 | 2,3m | 40,8 | 130,8 | 138,7 | 9,6 |

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-noyabr oylari davomida yuqori o'sish sur'ati yanvar oyida kuzatilgan.

Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi
(o'tgan yilga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019-yilning noyabr oyida import qilingan tovar va xizmatlar oktabr oyiga nisbatan 32,7 % ga kamaygan.

Xizmatlar importi hajmi 36,8 mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining 1,4 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 73,8 % ga kamaydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, komputer va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi


(oylar kesimida, mln. AQSH dollari)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019-yilning o'tgan davri mobaynida viloyatga import qilinayotgan tovar va xizmatlar noyabr oyida oktabr oyiga nisbatan 107,2 mln. AQSH dollariga kam import qilindi va 220,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi

(2019-yil yanvar-noyabr, %)



Xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarining eksport-importi
(2019-yil yanvar - noyabr holatiga)

| | Eksport- import qilgan korxonalar soni | mln. AQSH doll. | O'tgan yilning shu davriga nisbatan foiz hisobida |
|----------------|---|----------------------------|--|
| Eksport | 130 | 222,5 | 113,7 |
| Import | 401 | 615,7 | 111,0 |

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat
ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar
kesimida soni, birlikda**



2019-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatga 90 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Qozog'iston, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Janubiy Koreya, Turkiya va Germaniya hamkor davlatlarining jami import hajmi 2 042,0 mln. AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 77,2 % ini tashkil qiladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar, qora va rangli metallar, oziq-ovqat mahsulotlari hamda boshqa tovarlar viloyatimizga olib kirilayotganligini ko'rish mumkin.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi, milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-86-59**